


XII. BANDLIK VA MEHNAT BOZORI

2024- yil yanvar-sentabr oylarida kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so'rab 63 710 nafar fuqaro murojaat qildi. Ish qidirib murojaat etganlarning katta qismi Qarshi shahrida (5 851 kishi), Qarshi (5 535 kishi), Koson (5 146 kishi), G'uzor (4 716 kishi), Kitob (4 395 kishi), Qamashi (4 281 kishi), Dexqonobod (4 036 kishi), Shahrisabz (4 017 kishi), Kasbi (3 994 kishi), Chiroqchi (3 831 kishi), Yakkabog' (3 562 kishi) tumanlariga to'g'ri keladi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilgan fuqarolardan 33 622 nafari ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko'rsatkich, Koson tumanida (3 264 kishi), Qarshi shahrida (2 803 kishi), Kitob (2 780 kishi), G'uzor (2 536 kishi), Shahrisabz (2 358 kishi), Kasbi (2 249 kishi), Yakkabog' (2 190 kishi) tumanlarida yuqori darajada bo'ldi. O'tgan davr mobaynida bandlikka ko'maklashuvchi markazlarida ro'yxatga olingan fuqarolardan 1 290 nafari ishsizlik maqomini olgan.

Bandlikka ko'maklashuvchi markazlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni quyidagicha ifodalanadi:

Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari orqali ishga joylashtirilgan fuqarolar soni (kishi)




**Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga
ish qidirib murojaat etgan va roʻyxatga olinganlar soni
(2024- yil 1- oktabr holatiga, kishi)**

| | <i>Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimlariga ish qidirib murojaat etganlar soni</i> | | <i>jumladan, rasman ishsiz maqomini olganlar</i> | | <i>ulardan, ishsizlik nafaqasi ajratilganlar soni</i> | |
|--------------------------|---|--|--|--|---|--|
| | <i>2023- yil yanvar- sentabr</i> | <i>2024- yil yanvar- sentabr</i> | <i>2023- yil yanvar- sentabr</i> | <i>2024- yil yanvar- sentabr</i> | <i>2023- yil yanvar- sentabr</i> | <i>2024- yil yanvar- sentabr</i> |
| Viloyat boʻyicha: | 53 113 | 63 710 | 2 796 | 1 290 | 970 | 232 |
| shaharlar: | | | | | | |
| Qarshi | 4 533 | 5 851 | 98 | 34 | 37 | 1 |
| Shahrisabz | 2 352 | 2 727 | 178 | 115 | 20 | 6 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Gʻuzor | 4 872 | 4 716 | 207 | 222 | 101 | 20 |
| Dehqonobod | 3 380 | 4 036 | 169 | 43 | 90 | 21 |
| Qamashi | 3 860 | 4 281 | 111 | 46 | 29 | 7 |
| Qarshi | 3 468 | 5 535 | 101 | 42 | 33 | 7 |
| Koson | 3 905 | 5 146 | 359 | 59 | 113 | 4 |
| Kitob | 3 076 | 4 395 | 67 | 120 | 6 | 6 |
| Mirishkor | 2 103 | 2 589 | 390 | 97 | 242 | 19 |
| Muborak | 2 293 | 2 456 | 44 | 36 | 2 | 2 |
| Nishon | 3 117 | 3 347 | 236 | 30 | 76 | 5 |
| Kasbi | 2 505 | 3 994 | 132 | 90 | 19 | 36 |
| Koʻkdala | 2 565 | 3 227 | 120 | 42 | 36 | 2 |
| Chiroqchi | 4 117 | 3 831 | 153 | 62 | 54 | 15 |
| Shahrisabz | 3 423 | 4 017 | 244 | 161 | 49 | 10 |
| Yakkabogʻ | 3 544 | 3 562 | 187 | 91 | 63 | 2 |



Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga ish qidirib murojaat etgan fuqarolarning hududlar kesimidagi ulushi

(jami murojaat qilganlarga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: 2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlariga murojaat qilib kelganlardan ro'yxatga olinganlar ulushi Qarshi shahri, Qarshi, Koson, G'uzor, Kitob, Qamashi va Kasbi tumanlarida yuqori bo'lgan.


Ish bilan ta'minlangan aholi soni¹⁾

| | <i>2023- yil yanvar-sentabr</i> | <i>2024- yil yanvar-sentabr</i> |
|--------------------------|-------------------------------------|-------------------------------------|
| Viloyat bo'yicha: | 26 778 | 33 622 |
| <i>shaharlar:</i> | | |
| Qarshi | 2 330 | 2 803 |
| Shahrisabz | 1 052 | 1 511 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| G'uzor | 3 303 | 2 536 |
| Dehqonobod | 1 226 | 1 832 |
| Qamashi | 1 966 | 1 948 |
| Qarshi | 1 535 | 2 062 |
| Koson | 2 475 | 3 264 |
| Kitob | 1 722 | 2 780 |
| Mirishkor | 860 | 1 354 |
| Muborak | 1 265 | 1 440 |
| Nishon | 1 291 | 1 397 |
| Kasbi | 1 308 | 2 249 |
| Ko'kdala | 1 284 | 1 794 |
| Chiroqchi | 1 630 | 2 104 |
| Shahrisabz | 1 926 | 2 358 |
| Yakkabog' | 1 605 | 2 190 |

¹⁾ Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari asosida



Ish bilan ta'minlangan aholining hududlar kesimidagi ulushi (jami ish bilan ta'minlanganga nisbatan ulushi, foizda)



Izoh: Ishga joylashtirilgan shaxslar soni Koson, Kitob, Qarshi shahrida, G'uzor, Shahrisabz, Kasbi, Yakkabog' tumanlarida yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin.

O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 628,7 ming so'mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Qarshi shahrida 5 028,3 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 138,6 %), Muborak tumanida 4 562,8 ming so'm (125,7 %) , Nishon tumanida 4 538,1 ming so'm (125,1 %) va G'uzor tumanida 3 955,9 ming so'm (109,0 %) ni tashkil etgan.


Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromad

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

| | Xodimlar soni, kishi | Mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so'm | O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm |
|---|-------------------------|--|--|
| Viloyat bo'yicha jami | 234 844 | 7 600,8 | 3628,7 |
| shu jumladan: | | | |
| Sanoat | 26 843 | 1 417,8 | 5 868,7 |
| Qurilish | 4 807 | 185,0 | 4 275,4 |
| Savdo | 1 440 | 51,0 | 3 931,2 |
| Tashish va saqlash | 6 034 | 357,3 | 6 580,2 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 130 | 3,0 | 2 525,9 |
| Axborot va aloqa | 742 | 57,3 | 8 586,2 |
| Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik | 1 870 | 205,5 | 12 213,1 |
| Ta'lim | 113 433 | 2 969,5 | 2 908,7 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish | 50 273 | 1 175,2 | 2 597,3 |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish | 2249 | 91,9 | 4541,9 |
| Boshqa faoliyat turlari | 27023 | 1087,3 | 4470,8 |

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Viloyat bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 628,7 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,2 % ga o'sgan.

O'rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilikda 12 213,1 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 3,4 barobarga yuqori), Axborot va aloqada 8 586,2 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,4 barobarga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 6 580,2 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 81,3 % ga yuqori), Sanoat sohasida 5 868,7 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 61,7 % ga yuqori), hamda San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 4 541,9 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 25,2 % ga yuqori) ekanligi kuzatildi.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so'm)

| | 2023- yil | 2024- yil | O'sish sur'ati, % da |
|-----------------------------|----------------|----------------|-------------------------|
| Qashqadaryo viloyati | 3 263,7 | 3 628,7 | 111,2 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Qarshi sh. | 4 432,0 | 5 028,3 | 113,5 |
| Shahrisabz sh. | 2 726,1 | 3 369,6 | 123,6 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| G'uzor | 3 616,2 | 3 955,9 | 109,4 |
| Dehqonobod | 3 196,1 | 3 419,1 | 107,0 |
| Qamashi | 2 342,9 | 2 652,7 | 113,2 |
| Qarshi | 2 517,5 | 2 887,0 | 114,7 |
| Koson | 2 548,1 | 2 912,2 | 114,3 |
| Kitob | 2 529,9 | 2 819,6 | 111,5 |
| Mirishkor | 2 612,0 | 2 971,5 | 113,8 |
| Muborak | 4 057,4 | 4 562,8 | 112,5 |
| Nishon | 4 426,8 | 4 538,1 | 102,5 |
| Kasbi | 2 586,7 | 2 856,2 | 110,4 |
| Ko'kdala | 2 406,6 | 2 866,7 | 119,1 |
| Chiroqchi | 2 705,8 | 2 797,2 | 103,4 |
| Shahrisabz | 2 514,3 | 2 784,8 | 110,8 |
| Yakkabog' | 2 443,2 | 2 639,5 | 108,0 |


Ish haqi. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Ta'lim sohasida 1 885 ta muassasada 113 433 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 48,3 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 2 969,5 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 39,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 908,7 ming so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 14,3 % ga o'sgan.

Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Hududlar




■ ming so'm



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 46 ta korxonada 26 843 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,4 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 417,8 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 18,7 %) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 868,7 ming so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,8 % ga o‘sgan.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so‘m)




Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nishon tumanida 11 817,2 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,1 barobarga yuqori), Muborak tumanida 7 901,3 ming so‘mni (34,6 % ga yuqori), G‘uzor tumanida 7 215,6 ming so‘mni (22,9 % ga yuqori), Dehqonobod tumanida 7 180,5 ming so‘mni (22,4 % ga yuqori) tashkil etgan bo‘lsa, Ko‘kdala tumanida 3 075,8 ming so‘mni (52,4 %), Qarshi tumanida 3 004,0 ming so‘mni (51,2 %), Kasbi tumanida 2 914,9 ming so‘mni (49,7 %) hamda Kitob tumanida 2 651,6 ming so‘mni (45,2 %)ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasida 102 ta muassasada 50 273 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 21,4 %) xodim ishlagan boʻlib ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 175,2 mlrd. soʻmni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,5 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 597,3 ming soʻmni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 11,5 % ga oʻsgan.

**Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish
faoliyati boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari ming soʻmda)




Ushbu sohadagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi koʻrsatkichini viloyat hududlari boʻyicha koʻradigan boʻlsak, oʻrtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Mirishkor tumanida 3 574,5 ming soʻmni (viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan 137,6 %)ni tashkil etgan boʻlsa, Nishon tumanida 1 717,4 ming soʻmni (66,1 %) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega boʻlmoqda.



San'at, ko'ngil ochish va dam olish iqtisodiy faoliyat turida 48 ta muassasada 2 249 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 91,9 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,2 %) ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 541,9 ming so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 20,1 % ga o'sgan.

San'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari,
ming so'mda)



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Muborak tumanida 6 154,4 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 135,5 %), Qarshi shahrida 5 576,1 ming so'm (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 122,8 %) ekanligi kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va
kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari % da)



■ Sohalar

ming so'm



Sanoat
5 868,7



**Bank, sug'urta, lizing,
kredit va vositachilik**
12 213,1



Qurilish
4 275,4



Ta'lim
2 908,7



Savdo
3 931,2



**Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish**
2 597,3



Tashish va saqlash
6 580,2



**San'at, ko'ngil ochish
va dam olish**
4 541,9



Axborot va aloqa
8 586,2



**Boshqa iqtisodiy
faoliyat turlari**
4 470,8